

TO'RTKO'L AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



*“Xalqparvar adib” (O’zbekiston va Qoraqalpog’iston xalq
yozuvchisi Qaipbergenov To’lebbergen 1929-2010)
tavalludining 95 yilligiga*

USLUBIY QO’LLANMA

To’rtko'l 2024

Kirish.

To'lepbergen Qaipbergenov 1929-yilning 7-may kuni Kegeyli tumanining Sho'rtanboy shaharchasida dunyoga kelgan. 1947-yil Xo'jayli pedagogika bilim yurtini, 1955-yil Qoraqalpoq Davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetini tamomlaydi. Institutni bitirgach "Amu Daryo" adabiy jurnalida chop etila boshladi, keyinroq uning bosh muharriri bo'ldi. O'z vaqtida T.Qaipbergenov Qoraqalpoq radio qo'mitasi direktor o'rinnbosari, Respublika gazetalari bosh muharriri, Qorqalpoq ASSR Bosma Qo'mitasi director o'rinnbosari lavozimlarida ishlagan. 1980-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasiga boshchilik qilgan.

T.Qaipbergenovning birinchi kitobi 1958-yil dunyo yuzini ko'rgan. Ketidan 80dan ortiq asarlari chop etilib, rus, o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uning "Qoraqalpoq qizi" kitobi asosida "O'zbekfilm" studiyasi tomonidan Vatanimizning yetakchi aktyorlari ishtirokida badiiy bilm suratga olingan. Oltin fondga tegishli bo'lган asar orqali muallif kitobxonni XX asr boshidagi qoraqalpoq hayot tarzi va oilaviy turmushning alohida jihatlari bilan tanishtiradi.

1951-yil "Jas Leninshi" gazetasida "Tilegim" nomli uning birinchi dostoni chop etiladi. 1955-yil uning "Pochtalon kelgende" nomli asari "Jas Leninshi" gazetasida bosib chiqiladi. 1956-yili esa "Kotib" nomli birinchi qissasi chiqadi.

Shu vaqtadan e'tiboran, u nasr janridagi asarlar yaratadi. Umumiylis hisobda, u qoraqalpoq, o'zbek, rus, turk va boshqa tillarda (sobiq SSSRning deyarli barcha tillarida) 100ga yaqin kitoblar yozgan. Yozuvchining qissa va romanlari orasida "Rahmat, ustoz", "Muzlagan tomchi", "Kotib", XX asr qoraqalpoq ayollarining taqdiri haqidagi "Qoraqalpoq qizi" (1963-1965), "Mamanbiy haqidagi rivoyat", "Baxtsizlar", "Tushunarsizlar", "Ko'z qorachig'i" (1984), "Qoraqalpoqlar haqida doston" trilogiyasini aytish mumkin.

Qoraqalpoqlar madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun To'lepbergen Qaipbergenov Qoraqalpog'iston va O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga ega bo'lgan. Yozuvchi Berdaq va Qoshg'ariy nomidagi Davlat mukofotlari, shuningdek, Sholoxova nomidagi Xalqaro mukofot laureatiga aylangan. 2003-yil T.Qaipbergenovga "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilgan.

"Shuhrat" medali, "Do'stlik" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlangan. "Qoraqalpog'iston haqida doston" (1986-yil "Mamanbiy", "Baxtsizlar", "Sargardonlar") trilogiyasi uchun SSSR Davlat mukofoti taqdim etilgan.

Xalq taqdiri orqali dramatizmga to'la davr voqealarini tasvirlash, shu tariqa umuminsoniy miqiyosda fikrlashga intilgan yozuvchilarning biri – vatandoshimiz To'lepbergen Qaipbergenovdir. Agar Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani orqali o'zbek xalqini, Muxtor Avezov "Abay yo'li" epopeyasi orqali qozoq xalqini,

Chingiz Aytmatov “Jamila”, “Asrga tatifilik kun”, “Kasanra tamg’asi” asarlari orqali qirg’iz xalqini dunyoga tanitgan bo’lsa, To’lepbergen Qaipbergenov “Qoraqalpoq dostoni”, “Qoraqalpoqnomma” roman-essesi, turli jahon tillarida chop qilingan publisistik maqolalari orqali qoraqalpoq nomini jahonga tanitishga muvaffaq bo’ldi. Uning Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat mukofoti, Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti, “Qoraqalpoq dostoni” trilogiyasi uchun sobiq ittifoqning Davlat mukofoti, “Qoraqalpoqnomma”, “U dunyodagi bobomga xatlar” roman-esselari uchun Mahmud Qoshg’ariy va Mixail Sholoxov nomidagi Xalqaro mukofotlariga sazovor bo’lishi To’lepbergen Qaipbergenov nomining jahon adabiy jamoatchiligi tomonidan tan olinishi uchun zamin yaratdi desak mubolag’a bo’lmaydi. Akademik Andrey Saxarovning Moskva minbarida turib yozuvchini Orol masalasida qo’llab-quvvatlab aytgan fikrlari, jahonga taniqli rus tadqiqodchilari Z.Kedrina, P.Marxomenko, Yu.Surovtsev, T.Davidova, Z.Osmanovalarning, o’zbek adib - olimlari Komil Yashin, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirmat Shermuhamedov, Rahimjon Otauli, qoraqalpoq olimi, marhum akademik Marat Nurmuhamedov va boshqalarning adib ijodiga, faoliyatiga bergen baholari ham To’lepbergen Qaipbergenovning yozuvchi sifatida jahon miqiyosida ahamiyat kasb etganini isbotlaydi. Yozuvchining dastlabki qissalari inson hayoti, yashashdan maqsad, umr mazmuni kabi azaliy-abadiy mavzularga bag’ishlangan bo’lsa, uning “Ko’z qorachig’i”, “U dunyodagi bobomga xatlar” asarlarida dunyoviy ahamiyatga ega masalalar – Orol, Orolbo’yi mintaqasida hayotni asrab qolish, tashvishli ekologik vaziyat muammolari qalamga olinadi. Uning yuksak minbarlarda so’zlagan nutqlari orqali esa Orol tashvishi millionlar tashvishiga aylangani, xalqaro ahamiyatga molik masala miqiyosiga ko’tarilgani, jahon xalqlari bu fojeaning mohiyatiga tushunib yeta boshlaganining guvohi bo’lganmiz. To’lepbergen Qaipbergenov dunyo ma’naviyatiga o’zining badiiy asarlari, publisistik maqolalari, jamoatchilik faoliyati bilan katta ulush qo’shdi. Aytaylik, u 1960-yillardan boshlab turli rahbar lavozimlarida ishlab, 1980-yildan to’umrining oxiriga qadar Qoraqalpog’iston Yozuvchilar uyushmasining raisi bo’ldi. Shu bilan bir qatorda uzoq yillar mobaynida u “Markaziy Osiya madaniyati”, “Yozuvchi”, “Jahon adabiyoti”, “Tafakkur”, “Sog’lom avlod uchun”, “Amudaryo” kabi gazeta va jurnallar tahrir hay’ati a’zosi sifatida ham ishtirok etdi. U mustaqil O’zbekiston mamlakatining odil siyosatini keng dunyo jamoatchiligi orasida, chet ellarda targ’ib-tashviq qilish niyatida mamlakatimiz nomidan Vengriya, Suriya, Hindiston, Vietnam, Mo’g’uliston, Yaponiya, AQSh, Fransiya, Belgiya mamlakatlarida bo’ldi, mazkur mamlakatlarning ko’plab ommaviy axborot vositalarida maqolalari, intervylulari nashr etildi. Ular hozirgi zamон qoraqalpoq publisistikasining namunalari sifatida o’z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Yozuvchiga 1974-yili Qoraqalpog’iston Xalq yozuvchisi, 1994-yili O’zbekiston Xalq yozuvchisi unvonlarining berilishi uning iste’dodining davlat miqiyosida

e'tirof etilishi edi.2004-yil unga "O'zbekiston Qahramoni" unvonining berilishi esa adibning ijodi va jamoat arbobi sifatida xizmatlariga berilgan munosib baho bo'ldi.

2004-yilning mart oida yozuvchining "Bobomga xatlar" asari N.Krasilnikov tarjimasida nashr qilinishi munosabati bilan (T.Qaipbergenov "Pisma natotsvet,dedushke", M.Izdatelstvo "Mir" 2004 y) Moskva shahrida mazkur asarning taqdimoti bo'lib o'tgan edi.XXI asr qoraqalpoq nasrida yana bir ahamiyatli voqealardan biri – bu tinib-tinchimas adibimizning "Qoraqalpoqman, tavakkalchiman" asarining nashr qilinishi bo'ldi (Nukus 2003 y).Kitobning birinchi qismi "Uchrashuvlarda tushgan 999 ta savolga javoblari" deb ataladi.Bunda muallifning o'z Vatanida yoki chet mamlakatlarda bo'lган paytlarda uchrashgan odamlari tarafidan berilgan savollarga tezkor javoblari jamlangan.Kitobning ikkinchi qismi "Intervyular,o'ylar" deb atalib, bu bo'limda adibning jahonda taniqli bo'lган abadiy siymolar – Lev Tolstoy va Chingiz Aytmatov haqidagi, shuningdek, Berdaq shoirning 175 yillik tavallud sanasi arafasidagi adabiy o'ylari, taniqli o'zbek yozuvchilari,shoirlari,olim va jurnalistlari Nabijon Boqiy, Shoyim Bo'tayev, Rustam Musurmon, Rahimjon Otauli va boshqalar bilan suhbatlari berilgan. Kitobning uchinchi bo'limi "XXI asr bo'sag'asida tug'ilgan adashimga 99 maslahat" deb ataladi.Unda sharqning o'lmas badiiy didaktik asarlari an'analariga suyanib yozilgan yangicha shakldagi adabiy o'ylari joy olgan. Kitobning to'rtinchi bo'limi T.Qaipbergenovning ayrim asarlari haqida fikr bildirgan mashhur kishilar – akademik Andrey Saxarov,dunyo adabiyotining taniqli vakillaridan biri Chingiz Aytmatov, o'zbek adabiyotining taniqli vakillari – O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, O'zbekiston xalq yozuvchilari Hamid G'ulom, Odil Yoqubov, adabiyotshunos F.Nasriddinovlarning fikrlari o'rinni olgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, To'leobergen Qaipbergenov – qoraqalpoq xalqining dramatizmga to'la, og'ir tarixiy qismatini Orol hududidagi ayanchli sharoitga bog'lab tasvirlash ham "umuminsoniy miqyosda fikrlash" yo'lidan boradi. Buni davrimizning ko'plab adib - shoirlari o'z asar va maqolalarida ta'kidlaydilar. Masalan, atoqli shoir, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov "Xalq so'zi" gazetasida e'lon qilgan "Qoraqalpoq dostoni" nomli maqolasida shunday deb yozadi: "A.Qodiriy – o'zbek xalqining, M.Avezov – qozoq xalqining,Ch.Aytmatov – qirg'iz xalqining manglayiga xudo yorlaqab bergan yozuvchilari... O'zining uzoq tarixiga ega bo'lgan qadimiyligi qoraqalpoq xalqining keng peshonasiga bugungi kunda tong yulduzi kabi yarashib turgan yozuvchi T.Qaipbergenovdir!"

Chindan ham T.Qaipbergenovning qissalari, turli uslubda yozilgan romanlari, publisistik maqolalari, intervyulari, dramatic asarlarisiz bugungi qoraqalpoq adabiyotini, umuman bu xalqning ma'nnaviy hayotini, badiiy so'z olamini ko'z oldimizga keltirish qiyin.Shuning uchun ham uning ijodi hamisha keng o'quvchilar ommasi orasida, adabiy jamoatchilikda muayyan qiziqish uyg'otib keldi,yuraklarga yo'l topa oldi.Mustaqillik yillarida To'lepbergen Qaipbergenov ijodi qoraqaqlpoq

adabiyotida yanada kengroq tadqiqodlar doirasiga olindi – taniqli olim Q.Sultonov doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan bo’lsa,yosh adabiyotshunos olimlar P.Nurjanov,A.Abdimuratov,H.O’temuratova,V.Polvonovlar o’zlarining nomzodlik ishlarida adib ijodini asosiy tadqiqod ob’yekti qilib belgiladilar.Nukus shahrida yashab turli tillardaq ijod qiluvchi adabiyotshunos olimlar Q.Quramboyev, F.Salayev, K.Tashanov, Sh.Abdullayevlar ham T.Qaipbergenov ijodini tadqiq, tqrg’ib qilish ishlariga o’z ulushlarini qo’shdilar.”Qoraqalpoq dostoni”ning rus tiliga tarjima qilinishida Z.Kedrina, A.Pantileyev, E.Arbenova, V.Pankinalarning “Qoraqalpoq qizi” romanining Moskvada kitob bo’lib chiqishida G.Maryanovskiyning, qissalar tarjimasida N.Yankevich va boshqalarning xizmatlari katta bo’ldi.Adibning nomi o’zbek kitobxonlari orasida keng tanilishida esa atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning xizmati juda katta.Gap shundaki, endigina adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yosh yozuvchining o’zbek o’quvchilari uchun kashf qilinishida ustoz Abdulla Qahhor bevosita ishtirok etgan bo’lib, u “Sovuq bir tomchi” qissasini 1962-yilda tarjimon Noyib Yoqubov bilan birgalikda o’zbek tiliga tarjima qilgan edi.Bundan ruhlangan T.Qaipbergenov shundan keyin butun hayoti davomida Abdulla Qahhor bilan aloqada bo’lib,ustoz-shogirdlik aloqalarini davom ettirib keldi.Shuningdek, adibning “Qoraqalpoq dostoni” trilogiyasini o’zbek tiliga tarjima qilgan Lola Tojiyeva, “Bobomga xatlar”, “XXI asr bo’sag’asidagi adashimga 99 maslahat” asarlarini “Sahro bulbuli” dramasini tarjima qilgan Raximjon Otauli tilga olib o’tish joiz.Xulosa qilib aytadigan bo’lsak adibning ijodi qoraqalpoq milliy nasridagina emas. Sobiq ittifoq va jahon miqyosida o’ziga xos ahamiyatga bo’lgan voqeа sifatida e’tirof qilinishiga loyiqdir!

Қ 17

Қаипбергенов, Т.

Қорақалпоқ достони: Уч жилдлик; 2-жилд: Бахтсизлар: [роман] / Тўлепберген Қаипбергенов. – Тошкент:Шарқ, 1999.-416 б.

Тўлепберген Қаипбергенов асарларининг ушбу иккинчи жилдига унинг машҳур “Қорақалпоқ достони”дан ўрин олган “Бахтсизлар” асари киритилган бўлиб,асарда 18-асрнинг биринчи чорагида қорақалпоқ халқи ғаётидаги ана шу алғов-далғовли йиллар ҳақида ҳикоя қилинади.

Қ 17

Қаипбергенов, Т.

Қорақалпоқ достони: Уч жилдлик; 1-жилд: Маманбий афсонаси: [роман] / Түлепберген Қаипбергенов. – Тошкент:Шарқ, 1999.-528 б.

Т.Қаипбергеновнинг “Маманбий афсонаси”да қорақалпоқ халқининг ўтмишдаги оғир,машаққатли ҳаёти,уруғлар ўртасидаги ўзаро низолар ва тўқнашувлар ёрқин лавҳаларда акс эттирилган. Асадаги муҳим ғоялардан бири қорақалпоқ халқининг бирликка,равнаққа ташналигидир.

Қ 17

Қайипбергенов, Т.

Қорақалпоқнома : [роман-эссе] / Түлепберген Қайипбергенов. – Тошкент:Шарқ, 1997. - 368 б.

Ушбу асарда қорақалпоқ халқининг халқ сифатидаги миллий қиёфаси, маънавий олами, ахвол-рухияси, урф-одатларини атрофлича очишга нимаики хизмат қилиши мумкин бўлса, барча-барчаси жамланиб, бир чеккадан батафсил ҳикоя-ҳангома-нома қилинади.

Қ 17

Қайыпбергенов, Т.

Қарақалпақ дәстаны : Бес томлық; 3-том: Түсиниксизлер: [роман] / Төлепберген Қайыпбергенов. – Нөкис:Қарақалпақстан,1979.-454 б.

Қарақалпақстан халық жазыўшысы Т.Қайыпбергеновтың бес томлығының бил үшинши томы “Қарақалпақ дәстаны” эпопеясының үшинши китабынан ибарат. Бунда Хийўа ханларына қарсы халық азатлық гүресинин Ерназар алакөз баслаған дәйири кенден сўйуретленген.

Tuzuvchi:

Axborot-bibliografiya xizmati rahbari:

Z.Matyakubova.

